SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 6 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SP1342V3I6Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 6 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

## *МУНДАРИЖА*

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Аминов Хамидулла Абдирахимович -*
БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ ........ 9-14

*Неъматов Рустам Абдуваид ўғли*
ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР ........ 15-23

*Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich*
FARG‘ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR ........ 23-32

*Мансуров Музаффаржон*
СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ ........ 32-42

*Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich*
FARG‘ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O‘ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA ........ 43-48

## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Kurpayanidi Konstantin Ivanovich*
COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYaLARNI JORIY ETISH MASALALARI ........ 49-55

*Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li*
KOMPANIYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O‘RNI ........ 56-65

*Абдуллаева Зульфия Иззатовна*
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ ........ 66-74

*Алимова Муниса Юлчиевна*
ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ ........ 75-80

*Абдиева Наргиза Шухратовна*
ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКИНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ ........ 81-91

*Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна*
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ ........ 92-97

*Tojimatov Izzatbek Ikromali o‘g‘li*
BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 98-103

*Савинова Галина Анатольевна*
ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ........ 104-108

*Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li*
QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI ........ 109-114

*Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё*
АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ........ 115-125

*Худаярова Хуршида Абдуназаровна*
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 126-132

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли*
РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ...... 133-141

*Аликулов Хусниддин Акбарович*
ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР . 142-151

*Саидова Камола Усканбаевна*
РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ СИФАТИДА ........ 152-156

*Shirinov Anvar Qanoatovich*
MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 157-162

*Хасанов Бобуржон Хакимович*
ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ҒОЯВИЙ-МАФКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 163-167

*Xodjayeva Fotima Nabixonovna*
AHMAD G‘AZZOLIYNING “SAVONIH” ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF ........ 168-172

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Rustamova Shaxnoza Abduraximovna*
MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O‘RNI ........ 173-180

*Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi*
MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 181-191

*Turg‘unova Fazilat Rustam qizi*
PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI ........ 192-197

*Saidov O‘lmas Raxmatovich*
O‘ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI ........ 198-206

*Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna*
O‘ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA ........ 207-213

*Ataboyev Isroiljon Mirza o‘g‘li*
MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHIYATGA EGA NUTQ TA’SIRINING USULLARI ........ 214-219

*Murodova Nilufar Karomatovna*
BLOGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI ................................ 220-224

*Ochilova Hilola Husan qizi*
XITOY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .......... 225-229

*Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o‘g‘li*
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O‘ZLASHAGAN SO‘ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI ................................ 230-238

*Yakubova Nilufar Egamberganovna*
“MULLO NASRIDDIN” – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA ................ 239-245

## *12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ ................................ 246-256

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich*
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ................................ 257-263

*Бозорова Муслима*
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ................................ 264-270

*Samadova Sarvinoz Samad qizi*
YOSHLARNI BAG‘RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

*Жўраев Вохид Тожимаматович*
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ ................................ 276-288

*Бозорова Назокат*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ................................ 289-295

*Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li*
MAKTAB O‘QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYALARI BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI ............ 296-301

*Sharipova Sitora Xaydarovna*
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIMDAN FOYDALANISH ................................ 302-307

*Isag‘aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna*
BIOLOGIYA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH ................................ 308-312

*Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi*
OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI ................................313-317

*Sulaymanova Dildora Nazarovna*
LOYIHAGA ASOSLANGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI ...318-325

*Ro‘ziev Rustam Ro‘zimurodovich*
YONG‘IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI–ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI ................................326-330

*Акрамов Баходир*
МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ ........................................................................................331-336

*Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li*
BO‘LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI ........................................................................337-342

*Umarov Bekzod Azizovich*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI ..........................................343-349

*Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна*
РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ..........................................................................................................................350-356

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 6 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Shirinov Anvar Qanoatovich**
Buxoro Davlat Universiteti Yuridik,
ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi katta oʻqituvchisi

## MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada inson taraqqiyotida mintaqada mavjud boʻlgan strategiyalar jahondagi tajribadan kelib chiqqan holda tahlili amalga oshirilgan. Masalaning Gʻarb va Sharq nuqtati nazaridan qilingan falsafiy mushohadasi misollar asosida keltirilgan. Ta'lim sohasidagi xorijiy tajribalar va istiqbolli yoʻnalishlar ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** inson taraqqiyoti, ta'lim, salomatlik, kasb-hunar, sifat va miqdor dilemmasi, islohot.

**Ширинов Анвар Каноатович**
Старший преподаватель кафедры Юридических,
социально-политических наук Бухарского
государственного университета

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СТРАТЕГИЙ В ОБЛАСТИ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕКА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Аннотация.** В данной статье проведен анализ существующих в регионе стратегий развития человека на основе мирового опыта. Философское рассмотрение вопроса с точки зрения Запада и Востока приводится на примерах. Выявлен зарубежный опыт и перспективные направления в сфере образования.

**Ключевые слова:** человеческое развитие, образование, здоровье, профессия, дилемма качества и количества, реформа.

**Shirinov Anvar Qanoatovich**
Senior lecturer of the department of Law,
socio-political sciences of the
Bukhara state university

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF STRATEGIES IN THE SPHERE OF HUMAN DEVELOPMENT IN CENTRAL ASIA

**Annotation.** this article carries out an analysis of the strategies prevalent in the region in human development based on experience in the world. The philosophical observation of the issue from the point of view of the West and the East is presented on the basis of examples. Foreign experiences and promising areas in the field of education are revealed.

**Keywords:** human development, education, health, profession, dilemma of quality and quantity, reform.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N20

**Kirish.** Inson taraqqiyoti sohasidagi islohotlarning jadallashuvi taraqqiyot dialektikasini ta’minlab beruvchi jarayonlardandir. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yilda qabul qilingan O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni mamlakatimizda islohotlarni ta’minlab beruvchi dasturilamal vazifasini bajaradi. Bunda 2019 yil 29 aprelda qabul qilingan 2030 yilgacha Xalq ta’limi tizimini rivojlantish konsepsiyasi qo‘l kelmoqda. Ta’lim sohasidagi islohotlarning falsafiy mushohadasi islohotlarning birinchi navbatda izchilligini ta’minlab bermoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida inson kapitalini mehnat bozorida va O‘zbekistonda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish xalq ta’limi tizimining strategik maqsadi etib belgilandi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan kelib chiqqan holda 2023 yilda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yilida bajariladigan ishlarni amalga oshirish uchun “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” nomli 4 yo‘nalishning 37-maqsadida: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Bunda sifat o‘zgarishlarini ta’minlash davr talabidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Inson taraqqiyoti zamonaviy tushuncha bo‘lganligi uchan bu mavzudagi tadqiqotlarni quyidagicha o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

Xorijiy olimlar farovonlik masalasini, inson taraqqiyoti, kapitali, barqaror rivojlanish tendensiyalarini tahlil etishda, M. Haq inson taraqqiyoti konsepsiyasini talqinini, A. Sen inson taraqqiyoti konsepsiyasining fundamental nazariyasini, K. Matikeyeva inson taraqqiyotini ta’minlashda nodavlat notijorat tashkilotlarni, N.Jdanova inson taraqqiyoti gender muammosini, D.I. Zakirova inson salohiyatini tadqiq etgan, J.R. Pauers inson taraqqiyotida “yashil iqtisodiyot”ni, J.Tilak inson kapitalining rivojlanishida ta’lim tizimini, S.Mexrotra inson kapitalidagi to‘siqlarni, S.Peyruz taraqqiyot dilemmalarini, X.Seilo inson farovonligida tenglik, ijtimoiy muhofazani, E.A. Stanton inson kapitali va tenglik rolini ko‘rib chiqqanlar. Inson taraqqiyoti, inson kapitali ko‘rsatkichlari, barqaror rivojlanish borasida A.A.Sagradov inson farovonligi va uning istiqbollarini, A.A. Razumov kam ta’minlangan aholi qatlamlari muammolarini, iqtisodiy inqirozlar davrida inson taraqqiyotini, G.S. Roshin demografik siyosat, munosib mehnat sharoitlarini, A.V. Klimenko ijtimoiy soha va inson taraqqiyoti omillarini, sog‘liqni saqlashning muayyan jihatlarini tahlil etganlar. S.Olimova migratsiya, yoshlar masalalari va mintaqaviy tafovutlarni, S. Pirmuhammedov ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, inson omili ko‘rsatkichlarini, M. Inoyatov, M. Norqobilov, M.Isroilov, F.Qosimov, A.Tojaliyev, B.Turdiyev, A.Salimov kabilar tomonidan inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish masalalari tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada inson taraqqiyoti haqidagi ta’limotlar va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra mintaqa mamlakatlarida ta’lim tizimidagi islohotlar 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasida Maktabgacha va maktab ta’limi

vazirligining tashkil etilishini taqozo etdi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida PISA (Programme for International Student Assessment) testlari ham joriy etilmoqda. Bu orqali ta'lim tizimining rivojlanishi ta'minlab berilmoqda. Joriy yil davomida "Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ilk qadam" davlat oʻquv dasturini amaliyotga tadbiq etish yaqin istiqbolda ijobiy natijalarga olib kelib jamgʻarma effektini shakllantiradi.

- Oʻzbekistonning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda oʻquvchilarni baholash dasturi reytingi boʻyicha jahonning birinchi 30 ta ilgʻor mamlakati qatoriga kirishiga erishish koʻzda tutilgan.
- Ushbu muddatga qadar STEAM-fanlarni hisobga olgan holda innovasion iqtisodiyot talablariga javob beruvchi yangi davlat ta'lim standartlari va dasturlari joriy etilishi lozim.

Xalqimiz "ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli soʻz bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi [1, 224].

Jahon bankining "Erta bolalikdagi rivojlanishni qoʻllab-quvvatlash" loyihasi doirasida "Bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta'lim sifatini baholashning milliy tizimi"ni Oʻrta yoshdagi bolalar ta'limi sifati va natijalarini baholash boʻyicha xalqaro MELQO (measuring early learning quality outcomes) baholash tizimini joriy etish nazarda tutilgan. Ta'lim muassasalarida "Yagona mavsumiy taomnoma"ni joriy etish yosh avlodning alimentar-tobe kasalliklariga qarshi immunitet va oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini yaxshilashda joriy etilgan.

Shuningdek sifatli ta'limni ta'minlash maqsadida Buyuk Britaniyaning Cambridge tashkiloti bilan hamkorlikda Cambridge Assessment muassasasining "PDQ" dasturini Agentlik tizimidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazida joriy etish orqali ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida ularning kasb nufuzini oshirish hamda maqomini yuksaltirish ishlari olib borilmoqda [2].

Ta'lim sohasidagi islohotlarni mehnat bozoridagi kasb, lavozimlar hamda ularning malaka darajalariga muvofiqligini xalqaro tajriba asosida koʻrib chiqish va "Ishga marhamat" monomarkazlari huzuridagi Oʻquv-maslahat ofislari faoliyatini transformasiya qilish ishlari olib borilmoqda. Professional ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, UNESCO tavsiyalari asosida yoshlar professional ta'lim muassasalarida kasbga oʻqitilmoqda.

Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga oʻqitish sifatini ta'minlash tizimi talablariga toʻliq javob beradigan namunaviy professional ta'lim muassasalari faoliyatini yoʻlga qoʻyilmoqda. Ta'lim sohasida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish nodavlat ta'lim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish borasida davlat dasturlari tadbiq etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmogʻini davlat-xususiy sheriklik asosida kengaytirish mazkur yilda amalga oshiriladigan islohotlardandir.

38-maqsadga koʻra maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 %dan kamida 80 %ga yetkazish ishlari bilan bir qatorda 39-maqsad, ya'ni maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha islohotlar amalga oshirilgan. Miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlarga olib kelishini ta'minlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy donor tashkilotlarning ham roli katta hisoblanadi. Bular orasida Jahon

banki guruhi, JICA, KOICA kabi tashkilotlarning Oʻzbekiston Respublikasidagi islohotlardagi roli beqiyosdir.

Ayniqsa bular orasida Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida oʻzining ishsiz kishilarni kasbga oʻrgatish markazlarin ochgan KOICA muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Koreya Respublikasi hukumatining grantini jalb etgan holda Shahrisabz shahrida kasb-hunarga oʻqitish markazini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2017 yil 14 martdagi 135-sonli Qaroriga asosan Shahrisabzda Ishsiz kishilarni kasbga oʻrgatish markazi yaratildi. Bu markazlarga qabul yilida 2 marta amalga oshiriladi.

- 1-potok – hujjatlar fevral-mart oylarida;
- 2-potok – hujjatlar avgust-sentyabr oylarida qabul qilinadi.

Bu markazda ishsiz kishilarni tayyorlash (qayta tayyorlash) quyidagi ixtisosliklar asosidan amalga oshiriladi:

1. Axborot texnologiyalari kasbi,
2. Elektrik va elektronchi kasbi,
3. Metalga ishlov berish va santexnika kasbi,
4. Tikuvchilik texnologi kasbi,
5. Toʻqimachilik ishlab chiqarish texnologiyasi kasbi.
6. Tikuvchilik texnologiyasi kasbi.

Samarqand shahridagi kasb-hunar taʼlim markazi ham faoliyat yuritadi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Koreyaning Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan 2016 yil 6 oktyabrda Samarqand shahrida Kasb-hunarga oʻqitish markazi ochilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining "Oʻzbekistonda kasb-hunarga oʻqitish imkoniyatlarini rivojlantirish" loyihasi doirasida KOICA ishtirokida Samarqand shahrida tashkil etilgan Kasb-hunarga oʻqitish markazida oʻquvchilar turli kasb-hunarlarga oʻrgatilmoqda.

Taʼlim imkoniyatlarini kengaytirish orqali turli kasblarni egallash mintaqada kambagʻallik darajasini kamaytirishga imkon yaratadi. Oʻzbekiston sharoitida kambagʻallik darajasi 2022 yilning oʻzida 17 %dan 14%ga tushgan. Hokim yordamchilari 1 mln aholini kasb-hunarga oʻqitib, tadbirkorlikni boshlashiga koʻmaklashgani, daromadli ish bilan band qilgani ijobiy holdir [3].

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yaratildi. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli taʼlim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yoʻlga qoʻyilsin.

"Toʻgʻri ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzi" umummilliy harakatining yoʻlga qoʻyilganligi mamlakatimiz aholisi orasida, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, yuqumli boʻlmagan kasalliklarning oldini olish va jismoniy faollik darajasini oshirishni koʻzda tutgan.

Oʻzbekiston Respublikasining 2022 yil yil 28 yanvarda qabul qilingan 2022-2026 yillarga moʻljallangan "Taraqqiyot strategiyasining 2 inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlatni barpo etish va va 7 adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish punktlarida koʻrsatilgan vazifalarini bajarish Oʻzbekistonning yaqin kelajakdagi istiqbollarini belgilab beradi [4] .

Qozogʻistonda "Qozogʻiston-2050" strategiyasi, Turkmanistonda "2018-2024 yillarga moʻljallangan rivojlanish", "2011-2030 yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha Milliy dastur", "2015-2020 yillarga moʻljallangan Gender tengligi boʻyicha harakatlar milliy rejasi" (22 yanvar 2015), 2018 yilda Qirgʻiziston Respublikasining 2018-2040 yilga moʻljallangan Milliy rivojlanish strategiyasi, Tojikistonning 2016 yilda 2030 yilgacha boʻlgan davrga moʻljallangan Milliy taraqqiyot strategiyasi, 2020 yilda Oʻzbekiston 2021-2025 yillarga moʻljallangan BMT Barqaror rivojlanish hamkorligi boʻyicha Hamkorlik Dasturi, 2022-2026 Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyoti strategiyasida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambagʻallikni qisqartirish davlat siyosatining asosiy yoʻnalishi sifatida belgilangan strategiyalar amalga oshirilayotgan islohotlarning darajasini bildiradi. [3, 30]

Hozirgi kunda jahonda 58 mamlakatda 258 million kishi toʻyib ovqatlanmaydi. Bu tarkibida БМТ, YeI va hukumatlar va nodavlat tahskilotlar mavjud boʻlgan oziq-ovqat inqiroziga qarshi global tarmoqning hisobotida keltiriladi. Toʻrt yildan beri oshayotgan 2022 yilgi koʻrsatkich oxirgi 7 yilning eng yuqori raqam hisoblanib aholining oʻsishi bilan izohlanadi. Mazkur hisobotning soʻzboshisida BMT Bosh Kotibi "Bunday holat insoniyatning BRMlardan sayyoramizdagi barcha uchun ocharchilikni bartaraf etish deb hisoblanadigan ikkinchi maqsadga yetish vazifasida imkoni yoʻqligini anglatmoqda" deb taʼkidlaydi. Ayniqsa, ogʻir vaziyat Afgʻoniston va Somalida roʻy bergan. Qiyin ahvolga tushib qolgan 38 million aholining yarmi Kongo Demokratik Respublikasi Sudan va Yamanda istiqomat qilishadi.

5 yoshgacha boʻlgan 35 million bolalar oʻtkir darajadagi toʻyib ovqatlanmaslikdan aziyat chekib ulardan 9.2 millioni kritik holatdadirlar. Mazkur inqirozli holatga yoʻl ochuvchi omillar nizolar va anormal iqlim oʻzgarishlardir.

2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida taʼlim sohasida quyidagilarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

- Xalq taʼlimi tizimida maktab taʼlimini rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali 1.2 million oʻquvchi oʻrnini yaratish;
- Milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Yangi maktablarni qurish, xususiy maktablarning sonini oshirish, taʼlim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi;
- Yoshlarni sanʼat olamiga olib chiqish, ularning kompyuter va axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida 100 mingta jihozlangan toʻgaraklar faoliyatini yoʻlga qoʻyish;
- 2026 yilga kelib oʻquvchi oʻrinlari sonini 6.4 millionga yetkazish;
- 2026 yilgacha taʼlim jarayoniga ilgʻor xorijiy tajriba asosida oʻquv dasturlari va darsliklarning qayta ishlab chiqish ishlari olib boriladi.

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish" jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan ishsiz, kam taʼminlangan oilalar aʼzosi boʻlgan 20 nafar xotin-qizga subsidiya asosida tikuv mashinalari, 5 nafar fuqaroga motokultivatorlarning topshirilganligi ijobiy holdir.

"Saxovat va koʻmak" jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan "Temir daftar"da turuvchi 4 oila xonadoniga quyosh panellari oʻrnatib berildi. Kam ta'minlangan, ehtiyojmand 40 oilaga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

**Xulosa va takliflar.** Mazkur islohotlar birinchi navbatda mintaqada, jumladan O'zbekistonda inson taraqqiyoti boʻyicha trendlar ijobiy natijalarga olib keladi. Bu oʻz navbatida

aholining yuqori hayot va ta'lim darajalariga erishsishida va inson kapitalini, inson qadrini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mamlakatimizga qo'l keladi.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, 2021. "O'zbekiston". - B. 458.
2. O'zbekistonda 2022 yili kambag'allar soni qisqargani ma'lum qilindi. https://kommers.uz/ozbekistonda-2022-jili-kambagallar-soni-qisqargani-malum-qilindi 25.01.2023).
3. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni// https://lex.uz/uz/docs/5841063
4. Shirinov A. Q. Earth overshoot day and the case of central Asian countries (Human development vs. running out of resources) //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 28-33.
5. Qanoatovich S. A. Human Development of Human Capital as Per Reforms in Central Asia //Asian Journal of Basic Science & Research. – 2021. – T. 3. – №. 3. – C. 93-97.
6. Shirinov A. Q. THE FULFILMENT OF THE COMMITMENTS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS'IN THE 21ST ENTURY //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1144-1153.
7. Qanoatovich S. A. The implications of globalization in Central Asia: Centrifugal vs. Centripetal trends //Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe (East European Scientific Journal). – 2020. – T. 2. – №. 2. – C. 4-11.
8. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.
9. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2020. – T. 6. – №. 8. – C. 509-511.
10. Sobirovich T. B. New Uzbekistan: Socio-Philosophical Analysis of the Strategy of Human Indicators //Available at SSRN 3949264. – 2021.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I6Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).